

HALIMA XUDOYBERDIYEVA TARJIMAYI HOLINI O'RGATISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Isomiddinova Muxlisa

Namangan davlat pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi magistranti

E-mail: misomiddinova404@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20578955>

Annotatsiya: O'zbekiston xalq shoiri Halima Xudoyberdiyevaning tarjimai holini adabiyot darslarida interfaol metodlar asosida o'rgatish masalasi yoritiladi. Halima Xudoyberdiyeva tarjimai holini o'rgatishda "Hayot yo'li xaritasi", "Ijodkor bilan suhbat", "Vaziyatli tahlil" va "Guruhli tadqiqot" metodlaridan foydalanish imkoniyatlari atroflicha tahlil qilinadi. Mazkur metodlar o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, adabiy-estetik qarashi, ijodkor shaxsiyatini anglash ko'nikmasi, guruhda ishlash madaniyati va badiiy matnga ongli munosabatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Halima Xudoyberdiyeva, tarjimai hol, adabiyot darsi, interfaol metod, hayot yo'li xaritasi, ijodkor bilan suhbat, vaziyatli tahlil, guruhli tadqiqot, o'quvchi faolligi, adabiy ta'lim

Аннотация: В статье освещается вопрос преподавания биографии народной поэтессы Узбекистана Halima Xudoyberdiyeva на уроках литературы на основе интерактивных методов. Подробно анализируются возможности использования методов «Карта жизненного пути», «Беседа с творцом», «Ситуационный анализ» и «Групповое исследование» при изучении биографии поэтессы. Данные методы способствуют развитию у учащихся самостоятельного мышления, литературно-эстетического мировоззрения, навыков понимания личности творца, культуры работы в группе и осознанного отношения к художественному тексту.

Ключевые слова: Халима Худойбердиева, биография, урок литературы, интерактивный метод, карта жизненного пути, беседа с творцом, ситуационный анализ, групповое исследование, активность учащихся, литературное образование

Abstract: This article highlights the issue of teaching the biography of the People's Poet of Uzbekistan, Halima Xudoyberdiyeva, in literature classes through interactive methods. The possibilities of applying such methods as "Life Path Map," "Conversation with the Creator," "Situational Analysis," and "Group Research" in teaching the poet's biography are comprehensively analyzed. These methods contribute to the development of students' independent thinking, literary-aesthetic outlook, ability to understand the personality of the writer, teamwork culture, and conscious attitude toward literary texts.

Keywords: Halima Xudoyberdiyeva, biography, literature lesson, interactive method, life path map, conversation with the creator, situational analysis, group research, student activity, literary education

Adabiyot ta'limida ijodkor tarjimai holini o'rgatish muhim o'rin tutadi. Chunki badiiy asar muallif shaxsiyati, yashagan davri, hayotiy tajribasi, dunyoqarashi va ijodiy muhitidan ajralgan holda to'liq anglanmaydi. Ayniqsa, o'zbek adabiyotida o'z ovozi, o'z ohangi va o'ziga xos poetik dunyosiga ega bo'lgan Halima Xudoyberdiyeva kabi ijodkorlar hayotini o'rgatishda biografik ma'lumotlarni o'quvchilarga jonli, ta'sirchan va mazmunli yetkazish zarur. Bugungi ta'lim jarayonida ijodkor tarjimai holini faqat o'qituvchi bayoni orqali o'rgatish yetarli emas. Chunki zamonaviy o'quvchi tayyor ma'lumotni eshitishdan ko'ra, uni izlash, tahlil qilish, taqqoslash, savol berish va shaxsiy munosabat bildirish orqali yaxshi o'zlashtiradi. Shu sababli Halima Xudoyberdiyeva hayotini o'rgatishda interfaol metodlardan foydalanish dars samaradorligini oshiradi. Interfaol metodlar o'quvchini darsning faol ishtirokchisiga aylantiradi, uni fikrlashga, izlanishga va ijodkor hayoti bilan badiiy merosi o'rtasidagi bog'liqlikni anglashga undaydi. Ijodkor tarjimai holi adabiyot darslarida alohida o'rganiladigan muhim

mavzulardan biridir. Biroq tarjimayi holni o'rgatish faqat tug'ilgan sana, tug'ilgan joy, ta'lim olgan maskan, ishlagan joylari, yozgan kitoblari va olgan mukofotlarini sanab berishdan iborat bo'lib qolmasligi kerak. Bunday yondashuv o'quvchida vaqtinchalik xotira hosil qilishi mumkin, ammo ijodkor shaxsiyatini chuqur anglashga olib kelmaydi. Halima Xudoyberdiyeva 1947-yil 17-mayda Sirdaryo viloyatining Boyovut tumanida tug'ilgan. U Toshkent davlat universitetining jurnalistika fakultetida tahsil olgan. Keyinchalik matbuot va adabiyot sohasida faoliyat yuritgan. Shoiraning "Ilk muhabbat", "Oq olmalar", "Chaman", "Suyanch tog'larim", "Bobo quyosh", "Sadoqat", "Muqaddas ayol", "To'marisning aytgani", "Yo'ldadirman" kabi to'plamlari o'zbek she'riyatida munosib o'rin egallaydi. U 1992-yilda "O'zbekiston xalq shoiri" unvoni bilan taqdirlangan. Ushbu ma'lumotlar o'quvchiga oddiy faktlar sifatida emas, balki ijodiy kamolot bosqichlari sifatida tushuntirilganda samaraliroq bo'ladi. Masalan, shoiraning Boyovutda tug'ilgani uning she'riyatidagi xalqona ruh, qishloq hayoti, ona yurtga mehr va samimiyat bilan bog'lab izohlanishi mumkin. Jurnalistika fakultetida tahsil olgani esa uning so'zga mas'uliyat bilan yondashishi, hayot voqealarini teran kuzatishi, inson qalbi va jamiyat dardini his qila olishi bilan bog'lanadi.

"Hayot yo'li xaritasi" metodi

Halima Xudoyberdiyeva tarjimayi holini o'rgatishda eng qulay metodlardan biri "Hayot yo'li xaritasi" metodidir. Mazkur metod ijodkor hayotini izchil, bosqichma-bosqich va o'zaro bog'liq tarzda o'rganishga imkon beradi. Bu metodda o'quvchilar shoiraning hayotidagi muhim voqealarni ketma-ketlikda joylashtiradilar va har bir bosqichning ijodiy ahamiyatini tushuntirishga harakat qiladilar. Dars jarayonida o'qituvchi avval o'quvchilarga Halima Xudoyberdiyeva hayotidagi asosiy bosqichlar haqida qisqa yo'naltiruvchi ma'lumot beradi. So'ng o'quvchilar bu ma'lumotlarni tartibga soladilar. Ular shoiraning bolalik yillari, ta'lim olgan davri, jurnalistika bilan bog'liq faoliyati, adabiyot maydoniga kirib kelishi, she'riy to'plamlari, jamoatchilikdagi o'rni va xalq shoiri sifatida e'tirof etilishi kabi bosqichlarni ajratib ko'rsatadilar. Bu metodda o'quvchilar har bir bosqichga "Bu

voqea shoiraning ijodiy qarashlariga qanday ta'sir qilgan bo'lishi mumkin?" degan savol bilan yondashdilar. Masalan, jurnalistika sohasida tahsil olish Halima Xudoyberdiyevaning hayotni sinchiklab kuzatish, jamiyatdagi o'zgarishlarga befarq bo'lmashlik, inson qalbini teran anglash qobiliyatini kuchaytirgan bo'lishi mumkin. Shoiraning ayol va ona obraziga ko'p murojaat qilishi esa uning hayotiy kuzatishlari, milliy qadriyatlarga munosabati va ayol qalbini chuqur his qilishi bilan bog'liq tarzda tushuntiriladi. Mazkur metod o'quvchilarda tizimli fikrlashni ham rivojlantiradi. Ular voqealarni tartib bilan joylashtirish, sabab va natijani aniqlash, hayotiy faktlarni ijodiy jarayon bilan bog'lash kabi ko'nikmalarni egallaydilar. Natijada Halima Xudoyberdiyeva tarjimai holi ularning xotirasida quruq ma'lumot sifatida emas, balki izchil va mazmunli ijodiy yo'l sifatida saqlanadi.

"Ijodkor bilan suhbat" metodi

Halima Xudoyberdiyeva tarjimai holini o'rgatishda samarali metodlardan yana biri "Ijodkor bilan suhbat" metodidir. Bu metodda o'quvchilar shoiraning hayoti va ijodini intervyu, suhbat yoki savol-javob shaklida o'rganadilar. Mazkur metod o'quvchilarning og'zaki nutqini, tasavvurini, ijodiy fikrlashini va ijodkor shaxsiyatini anglash qobiliyatini rivojlantiradi. Adabiyot darsida ijodkor tarjimai holini o'rganish ko'pincha o'qituvchi bayoni orqali amalga oshiriladi. Bunda o'quvchilar tinglovchi vazifasida qolib ketishi mumkin. "Ijodkor bilan suhbat" metodida esa o'quvchi mavzu ishtirokchisiga aylanadi. U savol tuzadi, javob izlaydi, ma'lumotni qayta ishlaydi va uni jonli nutq orqali ifodalaydi. Bu metodni tashkil etishda o'qituvchi o'quvchilarga rollar taqsimlab beradi. Bir o'quvchi jurnalist, ikkinchisi Halima Xudoyberdiyeva, boshqalari esa adabiyotshunos, muxlis, zamonaviy o'quvchi yoki tanqidchi roliga qatnashishi mumkin. Jurnalist rolidagi o'quvchi shoiraga savollar beradi. Halima Xudoyberdiyeva rolidagi o'quvchi esa oldindan o'rgangan biografik ma'lumotlar va shoiraning ijodiy qarashlariga tayangan holda javob beradi. Bu metodning muhim jihati shundaki, o'quvchi ijodkor hayotini tashqi ma'lumot sifatida emas, ichki kechinmalar, qarashlar va hayotiy tanlovlar bilan bog'liq holda tasavvur qiladi. U Halima Xudoyberdiyevani faqat

darslikdagi ism sifatida emas, balki o'z davri, orzulari, kurashlari, ijodiy izlanishlari va ma'naviy pozitsiyasiga ega shaxs sifatida ko'ra boshlaydi. "Ijodkor bilan suhbat" metodi o'quvchilarning nutqiy faolligini sezilarli darajada oshiradi. O'quvchi savol berish madaniyatini, mantiqiy izchillikda fikr yuritishni, obrazga kirib gapirishni, ma'lumotni ijodiy shaklda yetkazishni o'rganadi. Bunday faoliyat, ayniqsa, adabiyot darslari uchun muhim, chunki adabiyot fani o'quvchini faqat bilim bilan emas, balki his qilish, tasavvur qilish va munosabat bildirish qobiliyati bilan ham tarbiyalaydi. Dars oxirida o'qituvchi suhbat asosida umumiy xulosa chiqaradi. O'quvchilardan "Bu suhbat orqali shoira haqida qanday yangi ma'lumot oldingiz?", "Halima Xudoyberdiyeva shaxsiyatining qaysi jihati sizga ko'proq ta'sir qildi?", "Shoira hayoti bilan uning she'riyati o'rtasida qanday bog'liqlik bor?" kabi savollarga javob berish so'raladi. Bunday refleksiya o'quvchilarning mavzuni chuqurroq anglashiga xizmat qiladi.

"Vaziyatli tahlil" metodi

"Vaziyatli tahlil" metodi o'quvchilarni muammoli vaziyat asosida mustaqil fikrlashga, dalil keltirishga, taqqoslashga va xulosa chiqarishga o'rgatadi. Halima Xudoyberdiyeva tarjimayi holini o'rgatishda bu metod juda muhim, chunki u o'quvchilarni biografik faktlarni shunchaki eslab qolishga emas, balki ularning ma'nosini tushunishga yo'naltiradi. Adabiyot darslarida ko'pincha o'quvchilar ijodkor hayotini asar tahlilidan alohida mavzu sifatida qabul qiladilar. Natijada tarjimayi hol bir tomonda, badiiy asar esa boshqa tomonda qolib ketadi. "Vaziyatli tahlil" metodi aynan shu uzilishni bartaraf etishga yordam beradi. O'quvchi ijodkor hayotini uning asarlari bilan bog'lashga, hayotiy tajriba va poetik g'oya o'rtasidagi aloqani ko'rishga o'rganadi.

Masalan, o'qituvchi darsda quyidagi muammoli vaziyatni taklif qilishi mumkin: ayrim o'quvchilar "Shoiraning hayotini o'rganish shart emas, uning she'rlarini o'qishning o'zi kifoya", deb hisoblaydi. Boshqa o'quvchilar esa "Ijodkor hayotini bilmasdan uning she'rlaridagi asosiy tuyg'u va g'oyalarni to'liq tushunib bo'lmaydi", degan fikrni ilgari suradi. O'quvchilardan ushbu ikki fikrni tahlil qilish,

o'z pozitsiyasini tanlash va Halima Xudoyberdiyeva hayoti misolida uni asoslash talab etiladi. "Vaziyatli tahlil" metodidan foydalanishda o'qituvchi tayyor xulosani darhol aytib bermasligi kerak. Aksincha, o'quvchilarning o'zlari fikr yuritishi, dalil topishi, guruhda muhokama qilishi va umumiy xulosaga kelishi uchun imkon yaratishi lozim. Bunda o'qituvchi yo'naltiruvchi savollar beradi: "Shoiraning bolalik muhiti uning ijodiga ta'sir qilgan bo'lishi mumkinmi?", "Nega uning she'rlarida ayol va ona obrazi muhim o'rin tutadi?", "Jurnalistika sohasi ijodkorning hayotni kuzatish qobiliyatini kuchaytirganmi?", "Tarjimayi holni bilish she'r mazmunini chuqurroq anglashga yordam beradimi?" Mazkur metod o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantiradi. Ular har qanday fikrni dalilsiz qabul qilmaslikka, o'z qarashini asoslashga, boshqa fikrlarni tinglashga va mantiqiy xulosa chiqarishga o'rganadilar. Adabiyot darsida bunday ko'nikmalar juda muhim, chunki badiiy matnni tushunish faqat mazmunni aytib berishdan iborat emas, balki undagi g'oya, obraz, tuyg'u va muallif pozitsiyasini anglashni ham talab qiladi. Halima Xudoyberdiyeva tarjimayi holi asosida beriladigan vaziyatli topshiriqlar tarbiyaviy jihatdan ham samarali. O'quvchilar shoira hayotidan mehnatsevarlik, ijodga sadoqat, ona yurtga muhabbat, ayol sha'niga hurmat, milliy g'urur kabi xulosalar chiqaradilar. Shu jihatdan "Vaziyatli tahlil" metodi mavzuni hayot bilan bog'laydi va o'quvchilarda shaxsiy munosabat shakllantiradi.

"Guruhli tadqiqot" metodi

Halima Xudoyberdiyeva tarjimayi holini chuqur va keng o'rganishda "Guruhli tadqiqot" metodi alohida ahamiyatga ega. Bu metodda o'quvchilar kichik guruhlariga bo'linib, shoiraning hayoti va ijodiy faoliyatining turli yo'nalishlari bo'yicha mustaqil izlanish olib boradilar. Mazkur metod o'quvchilarda manbalar bilan ishlash, axborotni saralash, guruhda hamkorlik qilish, fikr almashish va taqdimot qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. "Guruhli tadqiqot" metodining asosiy afzalligi shundaki, o'quvchilar tayyor ma'lumotni passiv qabul qilmaydilar. Ular mavzuni o'zlari izlaydilar, o'rganadilar, savollar tuzadilar va xulosa chiqaradilar. Bunday yondashuv o'quvchilarning darsga qiziqishini oshiradi va bilimning

mustahkam bo'lishiga yordam beradi. Darsda sinf bir necha kichik guruhlariga ajratiladi. Har bir guruhga Halima Xudoyberdiyeva hayotining alohida bir yo'nalishi topshiriladi. Masalan, birinchi guruh shoiraning bolalik yillari va tug'ilgan muhiti haqida izlanadi. Ikkinchi guruh uning ta'limi va jurnalistika faoliyatini o'rganadi. Uchinchi guruh shoiraning ijodiy faoliyati va she'riy to'plamlari haqida ma'lumot tayyorlaydi. To'rtinchi guruh esa Halima Xudoyberdiyevaning o'zbek adabiyotidagi o'rni va tarbiyaviy ahamiyatini tahlil qiladi.

Guruhli tadqiqot davomida o'qituvchi o'quvchilarga yo'naltiruvchi savollar berishi mumkin. Masalan: "Shoiraning bolalik muhiti uning ijodida qanday aks etgan?", "Uning jurnalistika faoliyati poetik qarashlariga qanday ta'sir qilgan?", "Halima Xudoyberdiyeva ijodida ayol va ona obrazi nega muhim?", "Shoira hayotidan bugungi yoshlar qanday saboq olishi mumkin?" Bu savollar o'quvchilarni oddiy ma'lumot yig'ishdan tahliliy fikrlashga olib chiqadi. Mazkur metodda har bir guruh o'z ishini sinf oldida taqdim etadi. Taqdimot og'zaki axborot, plakat, slayd, qisqa videolavha yoki ijodiy chiqish shaklida bo'lishi mumkin. Muhimi, har bir guruh o'z izlanishi natijasida umumiy xulosa berishi kerak. Masalan, bolalik yillari haqida ishlagan guruh shoira ijodidagi ona yurt va xalqona ruhga urg'u bersa, jurnalistika faoliyati haqida ishlagan guruh uning hayotni chuqur kuzatish qobiliyatini ochib beradi. Ijodiy faoliyat bo'yicha ishlagan guruh esa shoiraning she'riy to'plamlari orqali uning asosiy mavzularini aniqlaydi. "Guruhli tadqiqot" metodi o'quvchilarni hamkorlikka o'rgatadi. Har bir guruh a'zosi ma'lum vazifani bajaradi: biri ma'lumot topadi, biri uni tartibga soladi, biri taqdimot tayyorlaydi, biri esa natijani sinfga yetkazadi. Bu jarayon o'quvchilarda mas'uliyat, o'zaro yordam, muloqot madaniyati va jamoaviy fikrlashni rivojlantiradi. Halima Xudoyberdiyeva kabi ijodkorlarning tarjimai holini o'rgatishda bu metod ayniqsa samaralidir. Chunki shoira hayoti ko'p qirrali bo'lib, uni bitta yo'nalishda emas, turli jihatlar orqali o'rganish zarur. Guruhli tadqiqot o'quvchilarga aynan shu imkoniyatni beradi: ular shoiraning hayotini bolalik, ta'lim, ijod, jamiyatdagi o'rni va tarbiyaviy ahamiyati nuqtayi nazaridan ko'rib chiqadilar.

Halima Xudoyberdiyeva tarjimayi holini interfaol metodlar asosida o'rgatish dars samaradorligini bir necha yo'nalishda oshiradi. Avvalo, o'quvchilar mavzuni faol o'zlashtiradilar. Ular ma'lumotni faqat eshitmaydilar, balki uni izlaydilar, tartibga soladilar, muhokama qiladilar va tahlil qiladilar. Bu esa bilimning chuqurroq va mustahkamroq bo'lishiga xizmat qiladi. Ikkinchidan, interfaol metodlar o'quvchilarda ijodkor shaxsiyatiga nisbatan qiziqish uyg'otadi. Halima Xudoyberdiyeva hayoti oddiy tarjimayi hol sifatida emas, balki ijodga, hayotga, xalq va Vatanga sadoqat namunasi sifatida anglanadi. O'quvchi shoironing hayotiy yo'lini o'rganar ekan, uning she'riyatidagi mavzularni ham yaxshiroq tushunadi. Uchinchidan, mazkur metodlar o'quvchilarning nutqiy va kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantiradi. "Ijodkor bilan suhbat" metodida o'quvchilar savol tuzish va javob berishni o'rgansalar, "Guruhli tadqiqot" metodida fikr almashish va taqdimot qilishga o'rganadilar. "Vaziyatli tahlil" esa ularni dalil keltirish, fikrini himoya qilish va xulosa chiqarishga yo'naltiradi. To'rtinchidan, interfaol metodlar o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini shakllantiradi. Ular ijodkor hayotidagi voqealarni oddiy fakt sifatida emas, balki ijodiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega hodisalar sifatida baholaydilar. Bu esa adabiyot darsini chuqurroq, mazmunliroq va hayotga yaqinroq qiladi. Beshinchidan, interfaol metodlar tarbiyaviy vazifani ham kuchaytiradi. Halima Xudoyberdiyeva hayotini o'rganish orqali o'quvchilar mehnatsevarlik, ijodga sadoqat, ona yurtga muhabbat, ayolga hurmat, milliy g'urur va insoniylik kabi qadriyatlarni anglaydilar. Ayniqsa, shoira ijodidagi ona va ayol obrazlari o'quvchilarda mehr, ehtirom va ma'naviy sezgirlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Halima Xudoyberdiyeva tarjimayi holini o'rgatishda interfaol metodlardan foydalanish adabiyot darsining mazmuni, ta'sirchanligi va samaradorligini oshiradi. Shoira hayotini faqat sanalar va faktlar asosida emas, balki ijodiy shakllanish, hayotiy tajriba, shaxsiy qarash va badiiy tafakkur bilan bog'liq jarayon sifatida o'rgatish o'quvchilarning mavzuga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi.

“Hayot yo‘li xaritasi” metodi o‘quvchilarga shoiraning hayot bosqichlarini izchil va mantiqiy anglashga yordam beradi. “Ijodkor bilan suhbat” metodi tarjimayi holni jonli muloqot shakliga olib kiradi va o‘quvchilarning nutqiy faolligini oshiradi. “Vaziyatli tahlil” metodi ijodkor hayoti va asarlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushunishga xizmat qiladi. “Guruhli tadqiqot” metodi esa o‘quvchilarni mustaqil izlanish, manbalar bilan ishlash va jamoaviy taqdimot qilishga o‘rgatadi. Mazkur metodlar orqali o‘quvchilar Halima Xudoyberdiyevaning hayot yo‘lini chuqurroq o‘rganadilar, uning ijodi bilan tarjimayi holi o‘rtasidagi aloqani tushunadilar va shoiraning ma’naviy merosiga ongli munosabat bildiradilar. Natijada adabiyot darsi oddiy ma’lumot beruvchi mashg‘ulot emas, balki o‘quvchini fikrlashga, his qilishga, ijodkor shaxsiyatini anglashga va milliy adabiyotga mehr bilan qarashga yo‘naltiruvchi tarbiyaviy jarayonga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xudoyberdiyeva Halima. Saylanma. Toshkent: Sharq, 2000.
2. Xudoyberdiyeva Halima. Yo‘ldadirman. Toshkent, 2005.
3. Xudoyberdiyeva Halima. Muqaddas ayol. Toshkent, 1987.
4. Husanboyeva Qunduzxon va Roza Niyozmetova. Adabiyot o‘qitish metodikasi. Toshkent, 2018.
5. To‘xliyev Boqijon. Adabiyot o‘qitish metodikasi. Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010.
6. Ro‘ziyeva D., M. Usmonboyeva va Z. Xoliqova. Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi. Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2013